

Aviakompaniyada uzoq yillar faoliyat yuritgan mehnat fronti faxriysi bilan uchrashuv

2026 7 May

9-may – Xotira va qadrlash kuni arafasida Uzbekistan Airways yoshlari aviakompaniya Faxriylar kengashi a'zolari bilan birgalikda an'anaviy tarzda urush va mehnat fronti faxriylarini ziyorat qilishadi, ularga mamlakat tarixiga va fuqaro aviatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi uchun chuqur minnatdorchilik va hurmat bildirishadi.

Bugun aviakompaniya Faxriylar va yoshlar kengashi vakillari mehnat fronti faxriysi Klochko Leonid Mixaylovich xolidan xabar oldilar. U kishi urush yillarida front ortida fidokorona mehnat qilgan, G'alabadan so'ng esa ko'p yillar davomida aviakompaniyada turli lavozimlarda ishlab, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Mehmonlar iliq va samimiy ruhda Leonid Mixaylovichni yaqinlashib kelayotgan bayram bilan tabriklab, unga mustahkam sog'lik, baxt-saodat va uzoq umr tiladilar.